O‘zbekistonda atom energetikasi rivoji: o‘zbekistonlik mutaxassislar uchun seminar tashkil qilindi

Ma’lumki, O‘zbekiston aholisini barqaror narxlardagi ishonchli elektr energiyasi bilan ta’minlash, iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan birinchi atom stansiyasini qurish to‘g‘risida qaror qabul qilindi va 2018-yil 7-sentabrda Moskva shahrida atom elektr stansiyalarini qurish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida hukumatlararo bitim imzolandi.

Shu munosabat bilan, 2018-yil 10-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida mamlakatimizda birinchi atom elektr stansiyasining qurilishi munosabati bilan Rossiya tajribasi va ilg‘or texnologiyalarga bag‘ishlangan seminarbo‘lib o‘tdi. Unda FA vitse-prezidenti S.Mirzayev va Yadro fizikasi instituti yetakchi olimlari, “O‘zatom” agentligi bosh direktori J. Mirzamahmudov, tegishli vazirlik vakillari, o‘zbekistonlik mutaxassislar,“Rosatom” rahbariyati hamda Atom energiyasi bo‘yicha xalqaro agentlik (AEXA) ekspertlari ishtirok etishdi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, samaradorlik va xavfsizlikda zamonaviy yondashuvlarni hisobga olgan holda atom elektr stansiyalari aholining turmush darajasi, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, mamlakatning ilmiy-texnik va kadrlar salohiyatining o‘sishiga sezilarli hissa qo‘shib kelmoqda.

Ta’kidlash lozimki,yadro stansiyalarini qurish uchun O‘zbekiston VVER-1200 reaktorining avlodi «3+» zamonaviy Rossiya tajribalari asosidagi yadroviy texnologiyalarini tanladi, ular muvaffaqiyatli ravishda Rossiyada ham, xorijda ham qurilib, xalqaro xavfsizlik standartlari va AEXA talablariga to‘liq javob bera oladi.